

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Р.З.Хайров	
Интеграция Adobe Photoshop и платформ Google Arts & Culture в образовательный процесс будущих педагогов изобразительного искусства	106
X.A.Madaminov	
Turli yosh toifasidagi yunon-rum kurashchilarini morfofunktsional ko'rsatkichlarini o'rganish tahlili	114
S.T.Xakimov, M.N.Murodova	
10–12 yoshli qizlar orasida chim ustida xokkey bo'yicha jismoniy chidamlilikni oshirish metodikasi.....	120
A.N.Qosimov	
Sport vositasida milliy identiklikni shakllantirish: ijtimoiy-pedagogik asoslar va zamonaviy yondashuvlar.....	125
S.T.Xakimov, K.M.Uktamova	
Gimnastika darslari misolida nodavlat ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion metodlarni tatbiq qilish	130
B.B.Xaitbayeva	
Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish	134
Z.N.Usmonov	
Ixtiyoriy harakatlar va ularning fiziologik mexanizmi	140
A.I.Tuychiyev	
Maktab yoshidagi o'quvchilar organizmida funksional faollikni ta'minlovchi asosiy omillar.....	145
Sh.D.Ismoilov	
Jismoniy harakatlarning mazmuni va strukturasining nazariy asoslari	151
T.T. Yusupov	
Inson jismoniy rivojlanganligi va tayyorgarligining o'lchamlari tahlili	156
M.G'.Zaylobidinova	
Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning hayotiy ko'nikmalarini oshirish kasbiy muvaffaqiyat asosidir.....	162
M.X.Komilova	
G'arb ilmiy tadqiqotlarida onomastikasining pedagogik ahamiyati	168
N.R. Mansurova	
Milliy musiqiy merosni asrab-avaylashning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari.....	172
A.K.Yusupova N.A.Aliyev	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z-o'zini rivojlantirish kompetentligini rivojlanishning ba'zi masalalari	180
G.Sh. Latipova	
Malaka oshirish tizimi tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning metodologik asoslari	184
N.O. Xaydarova	
Tibbiyot OTMlari o'quv jarayonida bo'lajak shifokorlarning reflektiv madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	191
М.М.Боркошев	
Влияние тренерского стиля на социализацию юных спортсменов в командных видах спорта.....	195
S.S.Ubaydullayev	
Talabalarni ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	199
Z.N.Ortiqova	
Kichik yoshdagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va ularning assotsiativ fikrlashga ta'siri	203
М.М.Умаралиева	
Развитие самостоятельного обучения в высшем образовании с помощью интерактивных мультимедийных инструментов	207
Z.N.Ortiqova, Sh.M.Yigitaliyeva	
Boshlang'ich sinflarda umumlashtiruvchi dars tushunchasi va uning maqsadlari	211
H.A.Saipova, X.I.Obidova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetentligini rivojlantirishda hikoyaning o'rni.....	215



UO'K: 373.3:81'37+372.67

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISHDA HIKOYANING O'RNI****THE ROLE OF THE STORY GENRE IN DEVELOPING THE SPEECH COMPETENCE OF
PRIMARY SCHOOL STUDENTS****РОЛЬ ЖАНРА РАССКАЗА В РАЗВИТИИ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ
НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ****Saipova Hilola Abduhamitovna** 

Farg'ona davlat univeristeti, Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrasida dotsenti

Obidova Xurshidaxon Ilhomjonqizi

Farg'ona davlat univeristeti, magistrant

Annotatsiya

Hozirgi kun zamonaviy ta'limi o'z oldiga o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan yuqori darajadagi nutq malakasini shakllantirish vazifasini qo'yadi. Har qanday holatda ayniqsa o'quv jarayonida nutq asosiy o'rin tutadi va o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish o'quv amaliyotining ajralmas qismiga aylanadi. Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq kompetensiyasini rivojlantirishda hikoya janri qanday ahamiyat kasb etishini ko'rib chiqiladi va ta'lim-tarbiya jarayonida nutqni rivojlantirishga erishish orqali o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan hayotiy ko'nikmalar haqida so'z boradi.

Аннотация

Сегодня современное образование ставит перед собой задачу обеспечить всестороннее развитие личности школьника, в том числе формирование речевых навыков высокого уровня. В любом случае, особенно в образовательном процессе, речь играет ключевую роль, а развитие коммуникативных навыков учащихся становится неотъемлемой частью образовательной практики. В статье рассматривается значение жанра рассказа в развитии речевой компетентности младших школьников, а также жизненные навыки, которые необходимо формировать у учащихся через развитие речи в процессе обучения.

Abstract

Modern education aims to ensure the comprehensive development of the student's personality, including the acquisition of advanced speech skills. In all cases, and especially within the educational process, speech plays a central role, and developing students' communication abilities becomes an essential component of educational practice. This article explores the importance of the narrative genre in enhancing the speech competence of primary school students and discusses the life skills to be developed through speech development in the learning process.

Kalit so'zlar: nutq, hikoya, nutqiy kompetentlik, ta'lim tarbiya, muloqot, tushuncha.**Keywords:** speech, story, speech competence, education, communication, understanding.**Ключевые слова:** речь, рассказ, речевая компетентность, образование, общение, понимание.**KIRISH**

Mamlakatimizda ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar boshlang'ich ta'limdan boshlab o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha bilim o'zlashtirishga ehtiyojini, asosiy milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatini shakllantirishda zarur shart-sharoitlarni yaratib, boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy faoliyatini tashkil etishning pedagogik yondashuvlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonida individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivasiyani shakllantirish" kabi muhim vazifalar belgilangan. Umumiy o'rta ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarda o'qish, savodxonlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'limning har bir bosqichida ta'lim oluvchilar nutqini o'stirishga alohida e'tibor beradilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Barchamizga ayonki, nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog'langan holda o'stiriladi. Bolalarning nutqi va tafakkurini o'stirish boshlang'ich sinf ona tili va o'qishsavodxonligi fanidan hikoya o'rganish darslarida samarali ishlash imkoniyati mavjud. Tajriba va kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatadiki, ayrim nutqlar yoshlar tafakkur rivojiga ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki ijtimoiy taraqqiyotning muhim omiliga aylanishi mumkin. Bu ba'zan qisqagina bir nutq, minbardan aytilgan so'z yurakdan o'tilib chiqsa, boshqa odamlar qalbida ham unutilmas iz qoldirishi mumkinligini isbotlaydi. Nutqning mohiyati uning madaniyligi, ommaviyligi va ijtimoiy qimmatini bilan belgilanadi.

Sharq mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Unsurul Ma'aliy Kaykovus, Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Mahmud Qashg'ariy, Zamahshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugunakiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi e'tibor berishga da'vat etish bilan birga tilga, lug'atga, grammatikaga va mantiqshunoslikka oid asarlar yozganlar va yoshlar tarbiyasi masalalariga alohida e'tibor qaratganlar[3].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy qobiliyatlarini o'stirishda kitobning ahamiyati juda muhim omil bo'la oladi. Nutq o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vositadir. Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat sistemasini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirish materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga oidini tanlash, joylashtirish, mantiqiy operatsiyalarga katta ahamiyat beriladi. Tafakkur til materialini yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina muvaffaqiyatli o'sadi. Tushuncha so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, tushuncha til vositasi bo'lgan so'zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so'z (so'z birikmasi) ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo'ladi.

O'quvchilar nutqida mantiq ilmiga asoslanib fikr-mulohaza bildirish maqsadga muvofiq. Shu bois ular xotirasidagi so'z zahirasi o'z nutqi orqali harakatga keltiradi. Nutq va uni o'stirish tushunchasi. Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar funksiyasini, o'zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Buning uchun nima qilish kerak? Avvalo, o'qituvchi nutqi ravon, sodda, o'quvchiga tushunarli va notiq bo'lishi ko'zda tutiladi. Shundagina o'quvchi nutqi andoza sifatida o'sib boradi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Darsda o'qilgan hikoyani o'quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g'oyasini anglab yetishi uchun tahlil, sintez, taqqoslash, umumlantirish kabi zamonaviy innovatsion metodlardan qo'llanadi. O'qilgan hikoyani analiz qilishda har xil usullaridan foydalaniladi. O'quvchilar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar, o'qituvchi rahbarligida asarning rejasi to'liq tuziladi. Qatnashuvchi shaxslarni o'quvchilar o'z o'rnida aytib olmasliklari mumkin, ammo ularni asarda qatnashish tartibi bo'yicha aytish o'qituvchi tomonidan o'rgatiladi. Natijada o'qituvchi rahbarligida hikoyaning chizmasi tuziladi. Shundan so'ng o'qituvchi hikoya mazmunini yoritib beruvchi savollar beradi. Natijada hikoyaning mazmuni to'liq yoritiladi.

Bolaga nutqini ravon yetkazib berishni o'rgatish -bu uning izchil nutqini shakllantirishni anglatadi. Bu vazifa maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirishning umumiy vazifasidan biri hisoblanadi. So'zlarning izchil shakllarini o'zlashtirish murakkab va uzoq jarayon bo'lib, malakali pedagogik ta'sir va yetakchilikni talab qiladi. Bolaning izchil nutqini rivojlantirish kundalik hayot jarayonida (oila, do'stlar davrasida), shuningdek, sinfda amalga oshiriladi. Bolani hikoya qilishga o'rgatish, ya'ni o'z fikrlarini mustaqil ravishda izchil va ravon bayon etishga, o'qituvchi unga aniq so'zlar va iboralarni topishga, jummalarni to'g'ri tuzishga, ularni mantiqiy ravishda bir-biri bilan bog'lashga, ovoz va so'zlashuv normalariga rioya qilishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, o'qituvchi bola nutqining barcha jihatlarini –leksika, grammatika, fonetikasini yaxshilash uchun tizimli va muntazam ravishda ish olib bormog'i lozim. Bolaning hikoyalari mazmunan turli xil bo'lishi mumkin: o'yinchoqlar va o'yinlar, kundalik hayot obyektlari, bajarilayotgan ish topshiriqlari, boshqa bolalar bilan munosabatlar, tabiat va boshqalar. Bolalar

o'zlariga ma'lum bo'lgan narsalar, faktlar, voqealar haqida gapirishlari muhimdir. Shundagina ularning nutqi yanada izchil va ravon bo'ladi. Ta'lim jarayonida bolalarning turli xil hikoyalar yaratish qobiliyatlari shakllantiriladi. Hayotiy mavzulardagi hikoyalar bolaning hayotiy, aniq faktlarni taqdim etishni talab qiladi. O'yinchoqlar, o'simlik va hayvonlar haqidagi hikoyalar bolaning hayot tajibasi bilan bevosita bog'liq bo'lganligi uchun ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi, ularning ijodiy fikrlashiga, nutqining ravonlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tavsiflovchi hikoya mavzulari rasmlar bilan tuzilishi mumkin. Ko'pincha, hikoyamazmunining o'quvchilar tomonidan so'zlab berilishi balalarning idrokini, tafakkurini rivojlantiriladi. Shu bilan birga, tavsiflovchi hikoyada o'quvchilar xotirasidagi voqea hodisa materiallaridan ham foydalanish mumkin. Turli xil hikoyalarni ijod qilish - bolalar uchun nutq faoliyatining eng qiyin turi hisoblanadi. Shuning uchun, o'qituvchi asta-sekin oddiy vazifalarni yanada murakkab, ammo ayni paytda ushbu yoshdagibolalar uchun mos qilib tuzadi. Bolalar tomonidan egallangan nutq malakalarini doimiy ravishda mustahkamlash, ularni takomillashtirish kerak. O'qituvchi, ayniqsa, bolaning diqqatini jalb qilish kerak bo'lgan narsalarni aytib berishda bolalarda qanday qiyinchiliklar paydo bo'lishini aniq tasavvur qila olishi lozim.

NATIJA VA MUHOKAMA

Boshlang'ich sinf darsliklarida "Dadam qurgan dengiz" (Hakim Nazir), "Olma" (Malik Murodov), "Ilmli ming yashar" (Nurmat Maqsudiy), "Xazonchinak" (O'. Hoshimov), "Qo'shtarak" (A. Irisov), "Mehnatkash qiz" (Oybek), "Qodirboboning orzusi" (T. Hayit), "Xarita" (N. Norqobulov), "Qovun sayli" (Sh. Sa'dulla), "Mo'jiza" (R. Bekniyoz), "Qor odamning sovg'asi" (O. Husanov), "Xatarli uchrashuv" (P. Qodirov), "Do'stlik" (X. To'xtaboyev) kabi bir-biridan qiziqarli, mazmunga boy hikoyalar keltirilgan. Bu hikoyalarda ona tabiatga mehr, vatanparvarlik, chin do'stlik, mehnatsevarlik, mardlik va jasurlik kabi g'oyalar ilgari surilgan. O'quvchilar ushbu hikoyalar orqali qanday qilib nutqlarini rivojlantirishi mumkin? O'qituvchi guruhlariga bo'ladi va o'quvchilarga ushbu hikoyalarni bo'lib beradi. O'quvchilar sahnalashtirib yoki rollarga bo'lib hikoyani konkurs tarzda o'tkazadi. Birinchidan, har bir o'quvchining nutqi turlicha yo'sinda chiqadi va bu o'quvchilar uchun qiziqarli hamda nutqni shakllantirish sifatida muhim omil bo'lib qoladi[4].

Nutq faqat boshqa odamlar bilan amalga oshiriladigan aloqa vositasigina bo'lib qolmay, balki u bolalar uchun xulq-atvorni boshqarish vositasi hamdir. Turli yoshdagi bog'cha bolalari o'z xulq-atvorlarini, ya'ni ma'lum ijtimoiy sharoitda o'zlarini qanday tutishlarini tafakkur orqali o'ylab idora qiladilar. Bunda nutq birinchi darajali ahamiyatga egadir. Odatda kichik yoshdagi bog'cha bolalarining nutqlari ikkinchi bir odamga emas, balki o'zlariga qaratilgan bo'ladi. Masalan: «Anvar uxlaydi», «Anvarning qorni ochdi» deb gapiradilar. Bolalarning ana shunday o'zlariga qaratilgan nutqi *egostentrik nutq* deb yuritiladi. Katta yoshli bog'cha bolalarida egostentrik, ya'ni o'z-o'ziga qaratilgan nutq tugallanib normal holga keladi. Shunday qilib, asosiy aloqa vositasi bo'lgan nutq bola psixikasining taraqqiyotida benihoya katta rol o'ynaydi. Bog'chada va oilada to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'lim-tarbiya va xususan, bog'chada ona tilidan o'tkaziladigan maxsus mashg'ulotlar tufayli bola nutqini normal o'stirish mumkin. Bola bog'cha yoshining oxirgi bosqichiga kelganda og'zaki nutqning hamma turlaridan erkin foydalana oladigan bo'ladi. Bola nutqining bundan keyingi taraqqiyoti maktabda, o'qish jarayonida amalga oshiriladi.

Tarbiyachining nutqi nutq talablariga rioya qilingan holda bo'lishi kerak. Ya'ni nutqning tushunariligi, soddaligi, ta'sirchanligi, boyligi, ravonligi, sofligi, ifodaliligi, mazmundorligi, aniqligi, chiroyliligi, to'g'riligi bilan ajralib turishi kerak. Ba'zi tarbiyachilarning nutqi juda ta'sirchan bo'ladi. Bunday tarbiyachilar nutqi his-tuyg'u bilan sug'orilgan bo'lib, ular o'zlari gapirayotgan gaplardan o'zlari ta'sirlanadilar, ana shundagina bolalarga ham muayyan kayfiyatni «yuqtiradilar». O'tkazmoqchi bo'lgan mashg'ulotiga tarbiyachining o'zi qiziqishi va uning o'zida ham samimiy his-tuyg'u hosil bo'lishi shart. Tajribali bir pedagog yosh tarbiyachilarga shunday deydi: «Bolalarga hikoyani shunday so'zlab beringki, go'yo o'sha voqealarda o'zingiz ham qatnashgandek bo'ling...». Lekin hamma tarbiyachilar ham obrazga kirib hikoya yoki ertakni aytib bera olmaydilar. Ba'zi tarbiyachilarda esa nutq ancha oxista, ta'sirsiz, kam ifodali, qat'iy izchillikka rioya qilingan holda, dalilli va mantiqiy bo'ladi. Bunday nutq biroz zerikarli bo'lib bolalarni mashg'ulotga diqqatini jamlab olishi qiyinroq kechadi. Bunday nutq yo'naltirilgan yoki boshqacha aytganda undalma nutqdan iboratdir. Yana shunday tarbiyachilar ham borki, ularning nutqi emotsional ham, mulohazali ham emas, ammo bolalar ular nutqini yaxshi o'zlashtiradilar. Bunday nutqlarda zo'r ishonch kuchi yangraydi, gapirilayotgan gapga chuqur ishonch paydo qiluvchi kishining irodasi borligi sezilib

PEDAGOGIKA

turadi, o'z bolalarida ixtiyorsiz ishonch hosil qiladi. Tarbiyachi o'z fikrlarini haqchanligiga, bolalarni ishonitirishga qattiq kirishganligi o'z-o'zidan ko'rinib turadi. Ularning to'g'riligi va muhimligiga ishonch ixtiyorsiz ravishda bolalarga o'tadi. Bu katta ishonch va ta'sir kuchiga ega bo'lgan irodali nutq deyiladi.

Tarbiyachining vazifasi o'quvchilarga faqat ta'lim berish bilan chegaralanib qolmay, balki ularni har bir hikoya ustida o'ylashga, uni emotsional his qilishga o'rgatishdan iboratdir[5].

Quyida 35-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-sinf o'quvchilari bilan birgalikda tahlil qilingan hikoyani ko'rib chiqamiz.

Sovg'a

Doniyorning tug'ilgan kuni edi. Mehmonlar turli-tuman o'yinchoqlar ko'tarib kelishdi. O'zi yuradigan, gapiradigan, musiqa chaladigan... Bolalar o'yinchoqlarni biri olib, biri qo'yib rosa o'ynashdi. Oxiri zerikishdi. Shu payt bolalardan birining ko'zi kitobchaga tushib qoldi. Sovg'alar orasida kitobcha ham bor edi. Birdan u talash bo'lib ketdi.

- Ber menga...
- Men o'qishni bilaman.
- Viy, rasmiyam bor ekan.
- E, to'xtab tur, yirtasan.
- Sen o'yinchoq o'ynay qol.
- Yo'q.

Doniyor kitob talashayotgan bolalarga qarab: "Essizgina, shunday aziz sovg'a bor-yo'g'i bir donagina ekan-a", deb o'ylanib qoldi va kelgusida do'stlarining tug'ilgan kuniga faqat yaxshi kitob sovg'a qilishni diliga tugib qo'ydi.

Ushbu matn bo'yicha 35-maktabning 1-sinf o'quvchilari quyidagi vazifalarni bajarishdi.

1. Sarlavhani o'qishdi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilardan rasmda nimalar tasvirlangani so'raldi.

2. O'quvchilar rasmni tasvirladilar va o'z fikrlarini birma- bir ifoda qildilar.

3. Sarlavhaning nomi va rasmga qarab hikoyani nima haqida ekanini taxmin qilishlari so'raldi.

4. O'quvchilar fikr bildirdilar. So'ngra o'quvchilar hikoyani navbatma-navbat ifodali o'qidilar.

5. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga taxminingiz hikoya bilan mos keldimi deb savol berildi. O'quvchilar har xil javob berishdi, ba'zilarida to'g'ri, ba'zilarida umuman boshqacha fikrlar.

O'quvchilarga quyidagicha topshiriq berildi:

Hikoyani yana bir bor ifodali o'qing, so'ng siz ham yaqinlaringizga qanday sovg'alar ulashganingiz haqida o'ylang va eng yaxshi sovg'a nima ekanligini yozing. Ularning fikrlarini daftarlariga yozib kelishlari aytili.

Tadqiqotchi sifatida sinf o'quvchilarining nutqiga doir yutuq va kamchiliklarni inobatga olib bordim. Jumladan, sinf o'quvchilarining 11 tasi – o'qigan matnini yaxshi tushunadi, 13 tasi - o'rtacha tushunadi, 6 nafari - esa qiyinchilik bilan tushunadi.

XULOSA

Shunday qilib, turli usullar yordamida bolalarga hikoya mazmunini to'liq yetkazish, noto'g'ri talqin qilmasdan, matnning lingvistik materiallari bilan ishlashga, izchil ifodali nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga o'rgatish kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqini o'stirish kelajakda ulardan o'z so'zi va nutqini erkin so'zlaydigan insonlar chiqishi uchun zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. B.Ma'qulova, S. Sa'diyeva. Sinfidan tashqari o'qish mashg'ulotlari (4-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma). — T.: "O'qituvchi", 1997.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma / S.X. Jalilova, S.M. Aripova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; O'rta maxsus, kasbhunar ta'limi markazi. — Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2013. — 345 b.
3. To'laganov.Sh. Xarbiy xizmatchilarda notiqlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari// Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar, 2020. —3 b.
4. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharoljon Sariyev Ona tili o'qitish metodikasi.- Toshkent: «NOSIR»nashriyoti, 2009.
5. B. Qo'chqorov. Boshlang'ich sinf o'qish darsliklarida milliy istiqbil g'oyasini singdirish haqidagi asarlarni berilishi, 2015